



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI  
MEXANIZATSİYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI"

MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

BUXORO TABIIY RESURSLARNI BOSHQARISH INSTITUTI

**"QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARНИ QO'LLASH  
SAMARADORLIGI" MAVZUSIDAGI XALQARO  
ILMIY ANJUMAN**

## **MATERIALLARI TO'PLAMI**

23-24-fevral  
2024-yil



**2-TOM**

*"Qishloq va suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni qo'llash samaradorligi" // Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari to`plami.*

*[“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti. Mas’ul maharrir q.x.f.d., prof.v.b. M.M.Sarimsaqov] Buxoro: 2024.*

**Mas’ul muharrir:**

Qishloq xo’jaligi fanlari doktori, professor v.b.

Sarimsaqov Maqsudxon Mo’sinovich

**Taqrizchilar:**

Axmedov Sharif Ro`ziyevich, Jo’rayev Umid Anvarovich,  
Jo`rayev Akram Azamat o`g`li, Qurbonova Xurshida Idiyevna,  
Safarov Tolib Todjiyevich

**Tahrir hay’ati a’zolari:**

Inoyatov Ikrom Shaxrilloyevich, Shodiyev Ne’matjon Sadirovich,  
Fazliyev Jamoliddin Sharofiddinovich, Sharifov Firdavs Qobilovich,  
Tojiyev Sherzod Mirzoxid o`g`li

Ilmiy to’plam “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo`jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti texnik Kengashining 2024 - yil - \_\_\_dagi \_\_\_ - sonli qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

© “TIQXMMI” MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, 2024

UO'K 621.374., 537. 52

## **KASALLANGAN O'SIMLIK LARGA ELEKTR YORDAMIDA ISHLOV BERISH ISTIQBOLLARI**

***Bozorov Elmurod Ostanovich***

"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti "Texnologik jarayonlarni  
avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasi dotsenti, texnika fanlari bo'yicha  
falsafa doktori, Toshkent shahri, O'zbekiston Respublikasi.

*Email: bozorovelmurod@gmail.com*

***Abdullayev Mirshod Shuxratovich***

"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti "Ishlab  
chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va boshqarish" kafedrasi o'qituvchisi,  
Buxoro shahri, O'zbekiston Respublikasi.

*Email: mirshodabdullayev@gmail.com*

**Annotatsiya:** Jahonda qishloq xo'jaligi ekinlarining kasallik va zararkunandalariga qarshi ekologik sof, jumladan elektr yordamida ishlov berish usullari va qurilmalarini ishlab chiqish yetakchi o'rinni egallamoqda. «Dunyo miqyosida 60 mln. gektar maydonda pomidor va bodring yetishtirilishini hisobga olsak»<sup>1</sup>, o'simlik nematodalariga qarshi ish sifati va unumi yuqori elektrotexnologik ishlov berish qurilmalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Shu bilan birga sabzavot-poliz ekinlarining ildiz poyasidagi nematodaga qarshi elektr impulsli ishlov berish qurilmalarini ishlab chiqish va qo'llashga katta e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** elektr maydon, o'simlik; kasallik; elektrod; zararkunanda; elektrotexnologiya; impuls; sabzavot.

### **ПЕРСПЕКТИВЫ ЭЛЕКТРООБРАБОТКИ БОЛЬНЫХ РАСТЕНИЙ**

**Аннотация:** Ведущее место в мире занимает разработка экологически чистых методов и устройств, в том числе электрической обработки против болезней и вредителей сельскохозяйственных культур. "60 миллионов во всем мире. учитывая выращивание томатов и огурцов на гектарах" , одной из важных задач является разработка высокотехнологичных электрообрабатывающих установок с высоким качеством и эффективностью работы против нематод растений. В то же время большое внимание уделяется разработке и применению электроимпульсных обрабатывающих устройств против нематод в подвоях овощных бахчевых культур.

**Ключевые слова:** электрическое поле, растение; болезнь; электрод;

---

1 [www.eurasiancommission.org/ru/act/.../Проект обзора овощеводство.pdf](http://www.eurasiancommission.org/ru/act/.../Проект обзора овощеводство.pdf)

вредитель; электротехника; импульс; овощ.

## PROSPECTS FOR ELECTRICAL PROCESSING OF INFECTED PLANTS

**Abstract:** In the world, the development of environmentally friendly, including methods and devices for electrical processing against diseases and pests of agricultural crops is taking a leading place. "Worldwide total of 60 million. considering the cultivation of tomatoes and cucumbers on an acre of land," the quality of work against plant nematodes and the development of high-end electrotechnological processing devices are considered from important tasks. At the same time, great attention is paid to the development and application of electrical impulse processing devices against the nematode at the root base of vegetable-base crops.

**Key words:** electric field, plant; disease; electrode; pest; electrotechnology; impulse; vegetable.

**Kirish.** Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli ekologik sof elektrotexnologik qurilmalarni ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida, jumladan «...2030 yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini ikki barobardan ziyod ko'paytirish, ...2017–2020 yillarga mo'ljallangan ekin maydonlarini optimallashtirish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy intensiv agrotexnologiyalarni joiry etish» vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan o'simliklar ildizini zararlaydigan nematodaga qarshi elektr impulsli ishlov berish usulini ishlab chiqish va ishlab chiqarishga joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. [2]

Jahonda qishloq xo'jalik ekinlaridan bo'lgan pomidor va bodring ildiz poyalariga ekologik sof elektrotexnologik ishlov berishning yuqori samarali usullari va yangi ilmiy texnikaviy yechimlarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan sabzavot – poliz ekinlarining zararli nematodasiga qarshi elektr impulsli ishlov berish usulini ishlab chiqish va uning asosiy parametrlari sifatida yuqori impuls razryad kuchlanishi, impuls razryadining ta'sir etish davomiylik vaqt, kondensator sig'im ko'rsatkichlarini asoslash, ularni ildiz tizimida joylashgan nematodalarni yuqori kuchlanishda qizish yo'li bilan bartaraf etishni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan zararlangan sabzavot ekinlarining ildizlaridagi nematodaga qarshi kurashishni ta'minlaydigan ekologik sof elektr

impulsli ishlov berish usulini ishlab chiqish zarur hisoblanmoqda.

**Uslublar.** Respublikamizning yangidan tashkil etilgan shirkat, dehqon va fermer xo'jaliklardi paxta, g'alla, poliz, sabzavot va yopiq tuproqli (issiqxonalar) ekinlar ekiladigan yerlarda ko'pgina kasalliklar mavjud bo'lib, ayniqsa oxirgi yillarda o'simliklarning nematoda kasalligi ta'siridan ekinlar hosildorligida jiddiy zarar yetmoqda. Ayniqsa sabzovot, poliz va issiqxonalardagi ekin ekiladigan maydonlardagi hosildorlikda ko'proq talafot ko'rilmoxda [3; 4].

Birinchi bo'lib tadqiqotchi Ye.S.Kiryanova [5; 524 b.] tomonidan O'rta Osiyoning ekin maydonlarida ushbu kasallikning «*Tylenchohynchus cylindricys cobb*» turi mavjudligi aniqlangan. Ushbu viruslarning «*H.diganicus perry*» va «*H.digitatus Siddiqi et Husain*» turlari O'zbekistonning ekin maydonlarida mavjudligi tasdiqlanib ro'yxatga olingan. Sohaga dahldor olimlarning [5; 524 b.] ilmiy tekshirish natijalari shuni ko'rsatdiki hozirgi paytgacha yer yuzida parazit nematodalarining kasal yuqtiruvchi 29 ta turi o'rganilgan bo'lib shulardan Respublikamiz hududidagi yerlarda ayniqsa ushbu kasallikning uchta turi keng tarqagan. Bularga 1959 – yilda kashf etilgan «*Scutellonema clathricaudatum Whithead*», 1960 – yilda aniqlangan «*Rotylenchoides intermedius Lus*» va 1971 – yilda topilgan «*Helicotylenchus pteracercus Singh*» larni kiritish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan turdag'i nematodalarning salbiy ta'siri ekinlarni zararlashdan tashqari ularni hosildorlik sifatini pasayishiga ham olib keladi. Nematodalardan yetkaziladigan iqtisodiy zarar dehqonchilikda juda katta ko'rsatgichni tashkil etadi va bu ko'rsatkichlar 1-jadvalda keltirilgan.

**O'zbekiston va xorijiy mamlakatlardagi nematoda kasallikdan ko'rila'digan zarar  
(umumiylisga nisbatan) % hisobida**

1-jadval

T/r	Mamlakatlar	Ekinlarning turlari	%
1	Angliya	Umumiy ekinlarda	18 %
2	AQSH	Sabzavot ekinlarda	10 %
3	Ukrainada	Kartoshka	80 %
		Lavlagi	15 %
		Bug'doy	70 %
		Suli	30 %
4	Latviya	Qulubnay	30 %
5	Kavkaz	Sabzavot ekinlarda	70 %
6	O'zbekiston	Bodring va pomidor	33 %
		Poliz ekinlari	7 %
		Ko'p yillik beda va kanop	19 %
		Sabzavot va kartoshka	8 %


	Kungaboqar va makajo'xori	13 %
	Boshoqli ekinlar	11 %
	Paxta va qand lavlagi	9 %

Masalan, issiqxonalarda yetishtiriladigan sabzavot ekinlari (pomidor va bodring)da 50% gacha, kartoshkada 80% gacha yetishi mumkin. Angliyada ekinlarining 18% nematoda chuvalchang(gelment)lari tomonidan yetkaziladigan zarar hisobiga yo'qotilib, u yiliga 2 mln funt sterlingdan, Germaniyada esa bu zarar mablag' hisobi 11 mln markadan ortiqni tashkil etadi. AQSHda o'simlik chuvalchang nematodalaridan har yili 10% hosil yo'qotiladi. Ukrainada o'simlikning poyasi va kartoshka tanasida yashovchi nematodalar ta'sirida omborxonalarda saqlanadigan 80% gacha kartoshka yo'qotiladi. Lavlagi yetishtiriladigan maydonlardagi lavlagining hosildorligi nematoda gjijalari hisobiga 2–3 martaga pasayishi mumkin, qand darajasi esa 15% gacha yo'qotiladi. Bug'doy ekiladigan maydonlarining nematoda bilan zararlanishi bug'doyning 70%, sulining 30% hosili yo'qolishiga sabab bo'ladi. Latviyada qulubnay ekinlarining 30%, Kavkaz o'lkasida esa hosildorlikning 3–6 martagacha kamayishiga olib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Ma'lumotlarga qaraganda umumiyligi dehqonchilikka ketgan xarajatlardan 30% foizi kasallik oqibatlarini bartaraf etish uchun sarflanadi. Agarda kasalliklarga qarshi kurashishga ketgan umumiyligi xarajatlar to'liq baholansa unda 1 yil mobaynida ushbu sarmoya hozirgi kun narxlarida 3,5 milyard so'mni tashkil etar edi [6; 74-78 b.].

**Natijalar va munozaralar.** O'rta Osiyoning iqlim sharoiti qulay bo'ladigan hududlarda nematoda kasalligining rivojlanishi va ko'payishi yanada avj oladi. Shu sababli iqlim sharoiti mo'tadil kelgan yillarda qishloq xo'jaligining madaniy o'simliklarga ular tomonidan 60% gacha zarar yetkazilishi mumkin. Qurg'oqchilik bo'lgan yillarda esa bu rayonlarda nematoda parazitlari asosan begona o'simliklarning ildiz poyalarida rivojlanib ko'payadi. Ayonki bir yillik va ko'p yillik begona o'tlar madaniy o'simlikka nisbatan keng tarqalgan bo'lib, ko'p yillik evolyutsion taraqqiyot begona o'tlarning yaxshi rivojlanishiga, tashqi salbiy ta'sirlarga bardoshliligining oshishiga va har xil kasalliklar va kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlarga qarshi immunitet hosil qilishiga sabab bo'lgan. Ushbu holat begona o'tlarning ildiz poyasi, ildizi va urug'lari kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar uchun o'ziga xos inkubator vazifasini o'taydi. Erta bahorda begona o'simlik ildizida joylashgan parazitlar ushbu ildiz poyalar va begona o't urug'larida rivojlanib, ularning maysalaridan oziqlanib ko'payishiga imkoniyat yaratadi. Madaniy ekinlar unib chiqqandan so'ng nematodalar madaniy o'simlik ildizlariga

joylashib o'simlik tanasida mineral suyuqlikni so'rib olib madaniy o'simliklar rivojiga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

Respublikamizning viloyat issiqxonalarida ayni paytda nematoda kasalligi tarkalgan maydonlar masshtabi umumiy ekin maydoniga nisbattan foiz (%) hisobidagi ko'rsatgichlar (1 – rasmga qarang) berilgan.



**1-rasm. Respublikamiz viloyatlariagi issiqxonalarda kasallangan darajasi**

**Xulosa.** Nematoda gjijlari va parazitlari bilan kuchli zararlangan xo'jaliklarning ekin maydonlaridan ko'rildigan zarar, paxta va qand lavlagi hosildorligida 8-10%, boshoqli ekinlarda 10-12%, kungaboqar va makajo'xorida 12-15%, sabzavot va kartoshkada 6-10%, ko'p yillik beda, kanop va shunga o'xshash o'simliklarda 18-20%, poliz ekinlarida 6-7%, pomidor, bodring va shunga uxshash o'simliklarda 30-40% gacha bo'ladi. Kuchli zararlangan va eng ko'p kasallangan maydonlarda hosildorlik yanada 1,5 – 2 barobar kam bo'lishi mumkin. Nematoda parazitlari o'simlikning ildizi va poyalarda joylashib olib uning tarkibida mineral ozuqa moddalari bilan oziqlanib qisqa muddatlarda ko'payadi. Natijada nematoda bilan zararlangan o'simliklar o'sishdan to'xtaydi, ozuqa moddalarining o'simlik organizmida yetarli darajada bo'lmasligi hosilning yetilmasdan turib tushib ketishiga yoki xosil cho'g'ining kamayishiga sabab bo'ladi va to'xtaydi, ozuqa moddalarining o'simlik organizmida yetarli darajada bo'lmasligi hosilning yetilmasdan turib tushib ketishiga yoki xosil cho'g'ining kamayishiga sabab bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [www.eurasiancommission.org/ru/act/.../Проект обзора овощеводство.pdf](http://www.eurasiancommission.org/ru/act/.../Проект обзора овощеводство.pdf)
2. III.М.Мирзиёев. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7

февралдаги ПФ – 4947 – сон «Ўзбекистон Республикасининг янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги фармони.

3. А.С. Способ электроимпульсной обработки растений. Бозоров Э.О. и др. Решение о выдаче патента на изобретение. Заявка № IAP 02758 29.09.2002.

4. Adilov YA.T., Toshpo'latov N.T., Bozorov E.O. «Begona o'tlar, o'simlik qoldiqlari va kassalik tarqatuvchi, mikro-organizmlarga qarshi elektro-impul's ishlov berish». (Ilmiy xat). № 01. 990007854 sonli ilmiy tadqiqot ishlarining hisoboti. TIQXMI 1999 yil. 27 bet.

5. Кирьянова Е.С., Краль Э.Л. Паразитические нематоды растений и меры борьбы с ними. – Л.: Наука. 1971. Т. II. – с. 524.

6. Бозоров Э.О. «Нематода касалликларга электро – импульс ишлов бериш». «Агросаноат мажмуй тармоқларида энергиядан самарали фойдаланиш муаммолари» Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами. 19-20 декабр Тошкент – 2003 й. 74-78 бетлар.

7. Abdullayev, M. Sh. "Automation of the process of drying Amaranth-based feed pellets." *AIP Conference Proceedings*. Vol. 2612. No. 1. AIP Publishing, 2023.

8. Pulotova, M. R., and M. Sh Abdullayev. "The use of black box method in automation of drying process of feed granules on the basis of amaranth." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.4 (2021): 1011-1018.

9. Абдуллаев, М. Ш., С. Йўлдошев, and III. Рўзибоев. "АВТОМАТИЗАЦИЯ ПРОЦЕССА ПОЛИВА АМАРАНТА В НЕБОЛЬШИХ ХОЗЯЙСТВАХ." *Экономика и социум* 3-1 (82) (2021): 370-373.

10. Абдуллаев, Миршод Шухратович. "СПРИНКЛЕРНОЕ ОРОШЕНИЕ РАСТЕНИЙ АМАРАНТА В УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА." *Universum: технические науки* 5-3 (86) (2021): 59-60.

11. Усманов, Ж. И., & Абдуллаев, М. Ш. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ УСТРОЙСТВ. *Universum: технические науки*, (4-10 (97)), 37-40.

12. Абдуллаев, М. Ш., & Хакимов, М. М. (2021). Перспективы использования солнечной энергии для автоматизации вертикальных скважин в условиях Узбекистана. In *Управление качеством на этапах жизненного цикла технических и технологических систем* (pp. 15-19).

13. Abdullayev Mirshod Shuxratovich. (2021). YONISH VA ARALASHTIRISH KAMERALARI MATERIAL VA ISSIQLIK

- BALANSLARI ASOSIDA OZUQA GRANULANI QURITISH JARAYONINI MATEMATIK MODELLASHTIRISH. Eurasian Journal of Academic Research, 1(9), 234–237. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/138>
14. Миршод Абдуллаев ТЕХНОЛОГИЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННЫХ ПРОДУКТОВ Универсум: технические науки 2021 5-3 (86) Ст 59-60
15. Usmonov J.I. SPECTRAL DEPENDENCE OF THE PHOTOCONDUCTIVITY OF SINGLE-CRYSTAL SILICON ON THE POSITION OF THE FERMI LEVEL // The Way of Science, 2020. № 3 (73).
16. Usmonov J.I. DEVELOPMENT OF DEVICES BASED ON SILICON WITH MANGANESE NANoclUSTERS WITH THE PROPERTIES OF AVALANCHE FLIGHT DIODES // International scientific conference, Uzbekistan.
17. Usmonov J.I. Development of photocells for generation of sub-band photocarriers // 25th International Scientific and Practical Conference «INNOVATION-2021», Uzbekistan.
18. Усмонов, Ж. И. (2023). РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕДУР ВЫРАЩИВАНИЯ ИЗОТИПНЫХ ГЕТЕРОЭПИТАКСИАЛЬНЫХ ПЕРЕХОДОВ AlGaAs-GaAs и InGaAs/GaAs. Gospodarka i Innowacje., 33, 381-386.

## MUNDARIJA

<b>7 SEGMENTLI DESPLEYNI ARDUINO BILAN BOG'LASH .....</b>	11
<i>A.I.Hamzayev, M.E. Tajinov.....</i>	11
<b>СИЛОВОЙ АНАЛИЗ МЕХАНИЗМА ПЕРЕМЕЩЕНИЕ МАТЕРИАЛОВ В ВЫСКОСКОРОСТНЫХ ШВЕЙНЫХ МАШИНАХ.....</b>	16
<i>Ш.Б. Алиев, Л.А. Абдулазизов, Н.М. Сафаров,.....</i>	16
<b>ИССЛЕДОВАНИЕ ФРИКЦИОННОГО ИЗНОСА ЗУБЧАТОЙ РЕЙКИ МЕХАНИЗМА ПЕРЕМЕЩЕНИЯ МАТЕРИАЛА ШВЕЙНОЙ МАШИНЫ.....</b>	24
<i>Ш.Б. Алиев, Н.М. Сафаров .....</i>	24
<b>ПОВЫШЕНИЕ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ И СРОКА СЛУЖБЫ ЩЕТОК ХЛОПКОЧИСТИТЕЛЬНОЙ МАШИНЫ СНХ .....</b>	34
<i>Бекзод Сайдов, Назиржон Сафаров .....</i>	34
<b>NASOSLARNI BOSHQARISHDA MITSUBISHI KONTROLLERLARIDAN FOYDALANISH .....</b>	42
<i>Boboyorov Azizjon Eshmuminovich, To'xtayev Habibjon Nabijon o'g'li.....</i>	42
<b>O'SIMLIK KASALLIKLARIGA QARSHI ZAMONAVIY KURASH USULLARI .....</b>	48
<i>Bozorov Elmurod Ostanovich, Abdullayev Mirshod Shuxratovich .....</i>	48
<b>KASALLANGAN O'SIMLIK LARGA ELEKTR YORDAMIDA ISHLOV BERISH ISTIQBOLLARI .....</b>	56
<i>Bozorov Elmurod Ostanovich, Abdullayev Mirshod Shuxratovich .....</i>	56
<b>FOSFOGIPSDAN BIR YO'LA HAM PORTLANDSEMENT, HAM SULFAT KISLOTA OLISH.....</b>	63
<i>M.S.Egamberdiyev, R.Q.To'rayev .....</i>	63
<b>FOSFOGIPS - PORTLANDSEMENTLI XOM ASHYO ARALASHMASINI KUYDIRISH JARAYONINI YENGILLASHTIRUVCHI VOSITA.....</b>	67
<i>M.S.Egamberdiyev, R.Q.To'rayev .....</i>	67
<b>ELEKTROMOBIL QUVVATLANTIRGICHALAR UCHUN QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISHNING TABIIY-IQTISODIY TA'SIRI.....</b>	73
<i>Esanov Temurmalik Beknazar o'g'li .....</i>	73
<b>G'O'ZADA VILT KASALLIGINING TARQALISHI VA NAVLAR BO'YICHA ZARARLANISH DARAJALARI .....</b>	82
<i>Haydarov Anvarjon Jo'rayevich, Isroilov Dostonbek Rustam o'g'li .....</i>	82
<b>AXBOROT- KOMUNIKASIYA TEXNOLOGIYLARINING KASB-HUNAR MAKTABLARIDAGI O'RNI .....</b>	92
<i>T.A. Jo'raev, N.N.Ikromova, J.T.Jo'raev.....</i>	92
<b>ELOCH GIDROUZELI EKSPLUTATSIYASI HAQIDA MA'LUMOT .....</b>	96
<i>Jamolov F.N., Homidova D.O'.....</i>	96
<b>COMPARATIVE VIDEO EDITING PROGRAMS .....</b>	100
<i>Polvonov Kholbek Nematovich.....</i>	100
<b>TECHNIQUES AND TECHNOLOGIES OF DIGGING POTATOES GROWN IN SMALL PLOTS .....</b>	109
<i>A.A. Karimov.....</i>	109
<b>ДИНАМИЧЕСКИЕ НАПРЯЖЕНИЯ ВБЛИЗИ ПОВЕРХНОСТИ ВЫСТУПА ОТ</b>	

РОССИЙСКИЙ ИНДЕКС  
НАУЧНОГО ЦИТИРОВАНИЯ

Science Index\*



UNIVERSITY OF  
SURREY \* INTI



SZTE  
UNIVERSITY OF SZEGED

ODTÜ  
METU

AUEZOV  
UNIVERSITY  
1943

# CERTIFICATE

Of conference participant

**Abdullayev Mirshod**

*For participation in the International scientific  
conference on the topic "Effectiveness of using innovative  
technologies in agriculture and water management"  
with an article entitled*

**KASALLANGAN O'SIMLIK LARGA ELEKTR YORDAMIDA  
ISHLOV BERISH ISTIQBOLLARI**

Sh.J. Imomov

Rector of BUKHARA INSTITUTE OF  
NATURAL RESOURCES MANAGEMENT OF  
THE NRU "TILAME"



No 394-02-036



Microsoft

Academic

OCLC  
WorldCat®